Abstract: This article analyzes the role and effectiveness of tax mechanisms in the rational use of water resources in Uzbekistan. It highlights the characteristics of water as a limited natural resource and its socio-economic significance for sustainable development. International documents, particularly UN resolutions and the "Concept for the Development of the Water Sector of the Republic of Uzbekistan for 2020–2030," are reviewed. Using comparative analysis, induction, and deduction methods, the study examines the relationship between water consumption and tax revenues, efficiency ratings, and economic mechanisms of resource management. The results emphasize the importance of introducing water-saving technologies, improving reclamation conditions, and implementing projects based on public-private partnerships.

Key words: water resources, tax mechanisms, efficient use, sustainable development, irrigation systems, reclamation, water management, digital technologies, Smart Water, public-private partnership, economic efficiency, resource management, water-saving technologies, tax revenues, water supply, Uzbekistan economy, UN resolution.

Аннотация: В статье анализируется роль и эффективность налоговых механизмов в рациональном использовании водных ресурсов в Узбекистане. Раскрываются особенности воды как ограниченного природного ресурса, а также её социально-экономическое значение в условиях устойчивого развития. Рассматриваются международные документы, в частности резолюции ООН и «Концепция развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы». Применяя сравнительный анализ, индукцию и дедукцию, исследованы взаимосвязь между потреблением воды и налоговыми поступлениями, рейтинг эффективности и экономические механизмы управления. В результате даны научные выводы по внедрению водосберегающих технологий, улучшению мелиоративного состояния и реализации проектов на основе государственно-частного партнёрства.

Ключевые слова: водные ресурсы, налоговые механизмы, рациональное использование, устойчивое развитие, ирригационные системы, мелиоративное состояние, водное хозяйство, цифровые технологии, Smart Water, государственно-частное партнёрство, экономическая эффективность, управление ресурсами, водосберегающие технологии, налоговые поступления, водоснабжение, экономика Узбекистана, резолюция ООН.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi boshqa omillar bilan bir qatorda mavjud tabiiy resurslar zaxirasi va undan foydalanish samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shu bois, O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda mamlakat tabiiy resurslardan xususan, suv resurslaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, suv resurslarining cheklanganligi hamda ularning aksariyati qayta tiklanmasligi mavjud tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga erishish mumkin bo'ladi.

Suv sayyoramizdagi jamiki, mavjudotlarning tiriklik manbai hisoblanib, undan tejab-tergab, oqilona foydalanish azaldan insoniyatning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan va hozirda ham suv resurslari barqaror taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-geografik o'rni jihatidan O'rta Osiyoning markazida joylashganligi sababli uning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda suv resurslari alohida ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy manbalarning darak berishicha, qadimdan mamlakatimiz hududida suv hayot manbai sifatida qadrlangan, unga xo'jalik yuritishning eng asosiy omillaridan biri sifatida e'tibor qaratib kelingan.

Hozirgi kunda ham mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ayniqsa, uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi bo'lgan paxta, g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish bevosita suv resurslari bilan uzviy bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Suv resurslaridan samarali foydalanishda, hududning suv resurslari salohiyati bilan belgilanadigan ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlari, foydalanuvchilarning hususiyatlari va funksional tuzilishi va undagi mavjud muammolar taniqli rus iqtisodchi olimlari Avakyan A.B., Balatskiy O.F., Belichenko Yu.P., Gareyev A.M., Shiklomanov I.A. tomonidan o'rganilgan.

Aliyeva suvdan foydalanishda iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish masalalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari; Aliyev E.D., Belyayev S.D., Vyvarts A.D., tadqiqotlarida keltirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.A.Abdug'aniyev, A.S. Sultonov, Z.Ya.Xudoyberganov, S.A.Qo'chqorova I.L.Abduraximov, G'.Safarov, D.Qurbonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishda iste'mol qilingan suv hajmi va undan undirilgan soliq tushumlari hamda ularning samaradorlik reytingiga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL NATIJALARI

Suv inson hayoti uchun asosiy, tabiiy boyliklardan biri bo'lib, chuchuk suv juda qimmatli va nisbatan kam uchraydigan manba hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra dunyo suv resurslarining umumiy hajmida chuchuk suvning ulushi atigi 0,35 foizdan oshmaydi. O'z navbatida, sifatli, xavfsiz ichimlik suvi sezilarli darajada kamrok bo'lsada, lekin uning sarflanish darajasi tez o'sib bormoqda va chuchuk suv tobora kamyob resursga aylanib qolmoqda.

Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 2016-yil 6-dekabrda qabul qilgan 71/2226-sonli rezolyutsiyasida, 2018-2028-yillarni "Suv barqaror rivojlanish uchun" Xalqaro o'n yillik harakati e'lon qilindi.

O'zbekistonda ham aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiya"¹ si qabul qilinib unda, 2030-yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi:

sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha (10 foizga) oshirish;

suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming (370 ming ga) gektargacha kamaytirish;

sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;

vazirlik tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25 foizga kamaytirish;

barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga «Smart Water» («Aqlli suv») suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalarini o'rnatib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги "Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-6024 сон фармони



100 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish; qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;

suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish belgilangan.

O'tgan davr mobaynida "O'zbekiston - 2030» strategiyasining "Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish" bo'yicha 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tayyorlangan infografik ma'lumotning "Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlari"da 2023-yilda 189 ta obyektlarda qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilib, jami 406,1 ming gektar maydonda, shundan 77,2 ming gektarda tomchilatib, 18,4 ming gektarda yomg'irlatib, 12,9 ming gektarda diskret, 74,7 ming gektar maydonda boshqa turdagi texnologiyalar joriy qilingan. Suv tejovchi 222,7 ming gektar ekin maydonlari lazer uskunasi yordamida tekislanib, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlarning umumiy ko'rsatkichi 1,2 million gektarga yetkazilgan².

Lekin, suv resurslaridan tejab-tergab samarali foydalanish bo'yicha ko'rilayotgan qat'iy chora-tadbirlarga qaramasdan, suvni keraksiz isrof qilish, xususan, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan noqonuniy foydalanish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababdan, suvdan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan biri suvdan foydalanganlik uchun haq to'lash bo'lib, bu orqali suvni muhofaza qilish va uni qayta ishlash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish rag'batlantiriladi.

O'zbekistonda 1998-yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar tomonidan "suv uchun to'lov" to'lab kelgan bo'lsa, suv resurslaridan samarali va tejab-tergab foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, 1998-yildan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etilgan.

Qayd etish joizki, 1998-yildan 2019-yilgacha (yigirma yildan ko'proq vaqt davomida) bo'lgan davrda faqat yirik sanoat ishlab chiqaruvchilar va ayrim xizmat ko'rsatuvchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar bo'lib kelgan. Faqat, "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"da (2018-yil) barcha tadbirkorlik subyektlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlar), shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga ham ushbu soliqni to'lash joriy etilgan.

Hozirda O'zbekistonda suvdan foydalanuvchi va suvni iste'mol qiluvchi barcha tadbirkorlik subyektlari shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar³ deb e'tirof etiladi.

Quyidagi jadvaldan 2018-2024-yillarda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar sonining o'zgarish dinamikasini ko'rish mumkin.

1-jadval. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar dinamikasi⁴

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami soliq to'lovchilar	377,4	412,5	448,8	489,4	541,5	542,5	671, 7
2018-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (%)	100	109,3	118,9	129,7	143,5	143,8	178,0
Shundan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar	3,443	56,0	125,6	132,6	139,2	147,0	153,5
2018-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	1627,0	3647,0	3850,9	4043,6	4267,7	4459,7
Shundan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar jami soliq to'lovchilarga nisbati	0,09	13,6	28,0	27,1	25,7	27,1	22,8

Jadval ma'lumotlaridan tahlil qilinayotgan 2018-2024-yillarda respublikamizda jami soliq to'lovchilarning soni 78,0 foizga o'sgan bir paytda, aynan shu davrda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar soni deyarli to'rt yarim ming barobarga o'sganligi, ya'ni 2018 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar 3443 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 153547 tani tashkil etgan yoki 2024-

² https://drive.google.com/file/d/1Rq8Vxj_rwoCuaNRkNYIYr-WJPC2wV09I/view

³ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 384-moddasi

⁴ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



yilga kelib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar jami to'lovchilarning 22,8 foizni tashkil etganligini ko'ramiz.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar sonining o'sishini, ular tomonidan byudjetga to'lanayotgan soliqlar tushumidagi o'sish ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, quyidagilarni kuzatish mumkin.

2-jadval. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi (mlrd.so'mda)⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2019	1920	2021	2022	2023	2024
Davlat byudjeti daromadlari	102627,0	132938,0	164799,4	201863,7	231721,3	270775,0
2019-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	130,5	160,6	196,7	225,8	263,8
Shu jumladan resurs soliqlar	19772,0	21257,0	23036,4	23912,8	28079,5	29664,2
2019-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	107,5	116,5	120,9	142,0	150,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	314,5	478,8	684,4	704,1	791,4	1172,8
2020-yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	152,2	217,6	223,8	251,	372,9
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat byudjeti daromadlariga nisbati	0,3	0,36	0,41	0,35	0,34	0,43

Mazkur jadval ma'lumotlaridan tahlil qilinayotgan davr 2019-2024 yillarda davlat byudjetiga tushumlar ulushi 63,8 foizga o'sib, 2019 yildagi 102627,0 mlrd.so'mdan 2024-yilda 270775,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, aynan shu davr 2019-2024-yillarda davlat byudjetiga resurs soliqlari tushumlar ulushi 50,1 foizga o'sgan, ya'ni 2019-yildagi 19772,0 mlrd.so'mdan 2024-yilda 29664,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.

O'z navbatida, aynan shu davr 2019-2024-yillarda davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlar ulushi 372,9 foizga, ya'ni 314,5 mlrd.so'mdan 2024-yilda 1172,8 mlrd. so'mga o'sgan.

Yuqoridagi tahlil ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq to'lovchilar soni 2018-2024-yillarda to'rt yarim ming barobarga o'sgan bir paytda, byudjetiga tushgan tushumlar ulushi 372,9 foizga o'sganligi mazkur soliq turi bo'yicha soliq ma'murchiligini takomillashtirish lozimligidan dalolat beradi.

Shu sababli, mazkur muammoni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ayrim iqtisodiy tarmoqlar tahlil qilinishi lozim deb topildi.

Chunki, suv resurslaridan foydalanish tarmoqlarning xususiyatlari, ularning ishlab chiqarish texnologik tuzilmasi hamda ishlab chiqarish quvvatlariga bog'liq holda iste'mol qilinadi.

3-jadval. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar sonining iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha tahlili⁶

№	Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (2 va 3-bandlardagi mustasno) va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni	2012	29919	44273	46903	52350	53906
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi, (marta, barobar)	100,0	14,9	22,2	23,3	24,9	26,8
2.	Sanoat korxonalari soni	874	6856	5727	7697	6806	7267
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (marta, barobar)	100,0	7,8	6,5	8,8	7,7	8,3
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari soni	267	336	340	593	684	691

⁵ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁶ Жадвал Солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (marta, barobar)	100	1,2	1,3	2,22	2,56	2,58
4.	Qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer, dehqon xo'jaliklari) baliqchilik hamda dehqon xo'jaliklari soni	0	87694	81079	82640	85694	89979
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (marta, barobar)	0	100	0,92	0,94	0,97	1,3
5.	Avtotransport vositalarini yuvish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar soni	82	468	853	1081	1083	1379
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi, (marta, barobar)	100	5,7	10,4	13,1	13,2	16,8
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkohol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar soni.	275	295	317	308	319	325
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi, (marta, barobar)	100	0,7	1,2	1,1	1,2	1,3

Ushbu, jadval ma'lumotlaridan O'zbekistonda suvdan foydalanuvchi iqtisodiyotning tarmoqlaridagi korxonalar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 2019-yildan bosh o'sish tendensiyasida bo'lib 2020-yilda oldingi yilga nisbatan 14,9 barobarga, 2021-yilda 22,2 barobarga 2022-yilda 23,3 barobarga, 2023-yilda 24,9 barobarga va 2024-yilda 26,8 barobarga o'sgan.

Shuningdek, avtotransport vositalarini yuvish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar soni 2019-yilda 82 tani tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda o'sish tendensiyasida bo'lib 2020-yilda oldingi yilga nisbatan 5,7 barobarga (468), 2021-yilda 10,4 barobarga (853), 2022-yilda 13,1 barobarga (1081), 2023-yilda 13,2 barobarga (1083) va 2024-yilda 16,8 barobarga (1379) o'sgan.

O'z navbatida, qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer, dehqon xo'jaliklari), baliqchilik hamda dehqon xo'jaliklari soni 2020-yilda (ular uchun soliq to'lash joriy etilgan) keskin o'sib 87694 tani tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning soni kamayish tendensiyasida bo'lib, 2021-yilda 81079 tani, 2022-yilda 82640 tani, 2023-yilda 85694 tani tashkil etgan. Lekin soliq ma'murchiligining takomillashtirilishi bilan 2024-yilda ularning soni keskin o'sib 89979 tani tashkil etgan.

Iqtisodiyot tarmoqlar bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar sonidagi o'zgarishlarning soliq tushumlariga ta'siri tahlil etganda quyidagilarni kuzatish mumkin.

4-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlar bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarining tahlili ⁷

№	Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, (2 va 3-bandlardagi mustasno) va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'langan soliqlar hajmi (mlrd.so'mda)	9,3	10,8	17,2	18,1	20,7	38,9
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)	100,0	119,6	185,0	194,6	222,5	418,3
2.	Sanoat korxonalari tomonidan to'langan soliqlar miqdori (mlrd. so'mda)	230,5	232,6	267,0	272,8	297,6	378,9
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)	100,0	100,9	115,8	118,3	129,1	164,4
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan to'langan soliqlar miqdori (mlrd. so'mda)	17,5	18,2	19,3	19,5	20,8	24,9
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)	100,0	104,0	110,3	111,4	118,8	142,3
4.	Qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer, dehqon xo'jaliklari) baliqchilik hamda dehqon xo'jaliklari tomonidan to'langan soliqlar miqdori (mlrd. so'mda)	0	174,9	313,7	323,7	369,9	617,4

⁷ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida dissertant hisob-kitobi.



	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)	0	100	179,4	185,0	211,5	353,0
5.	Avtotransport vositalarini yuvishga ishlatilgan suv uchun to'langan soliqlar miqdori	1,3	1,6	3,6	3,8	4,7	8,9
	2019-yilga nisbatan o'sish dinamikasi (foizda)	100,0	123,0	277,0	292,3	361,5	684,6
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmiga to'langan soliqlar miqdori (mlrd. so'mda)	39,7	42,7	65,8	66,2	77,7	103,8
	2019-yilga nisbatan to'langan soliqlarning o'sish dinamikasi, (foizda)	100,0	107,5	165,7	166,7	195,7	261,5

Ushbu jadval ma'lumotlaridan O'zbekistonda suv resurslaridan foydalaniganlik uchun soliq ma'murchiligining takomillashtirilishi munosabati bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha 2020-2024-yillarda oldingi yillarga nisbatan soliq tushumlarining keskin o'sganligini kuzatish mumkin.

Xususan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari (bundan sanoat, elektr stansiyalar va kommunal xizmat korxonalari mustasno) va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'langan soliqlar hajmi 2020-2024-yillarda 119,6 foizdan 418,3 foizgacha, qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer, dehqon xo'jaliklari) baliqchilik, dehqon xo'jaliklari 100 foizdan 353,0 foizgacha, Avtotransport vositalarini yuvishga ishlatilgan suv uchun to'langan soliqlar miqdori 123,0 foizdan 684,6 foizgacha o'sgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tahlil natijalari O'zbekistonda suv resurslaridan samarali va oqilona, tejab-tergab foydalanishga rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi.

O'z navbatida, mamlakat Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash yuzasidan quyidagilarni amalga oshirilishi lozim bo'ladi.

1. Suv resurslaridan tejab-tergab, samarali foydalanishni yo'lga qo'yishda asosiy e'tiborni sohani raqamlashtirishga qaratish lozim va bunda asosiy e'tiborni:

nasos stansiyalariga "onlayn" nazorat qurilmalari va "aqlli suv" qurilmalaridan olinadigan ma'lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan yagona axborot tizimini joriy etish;

Suv xo'jaligi vazirligi yagona raqamlashtirish markazini tashkil etish suv iste'moli va uni hisobini yuritishning yagona axborot tizimini yo'lga qo'yish;

yagona axborot markazini tegishli mutasaddi vazirlik va idoralarning axborot resurs markazlari ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish.

2. Kanallar va ichki ariqlar orqali suv ta'minotidagi katta yo'qotishlarni bartaraf etish maqsadida, magistral kanal qurilish ishlarini jadallashtirish va har bir kanalga mutasaddi ta'lim tashkilotlari bilan "dual ta'lim" asosida betonlash tugaguncha bo'lgan barcha jarayonlarni ilmiy yondashuv asosida amalga oshirilishini tashkil etish.

3. Suv taqsimlanadigan nuqtalarga suv hisoblagich va video kuzatuv moslamalarini o'rnatilib, kimga qancha suv taqsimlanishining avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish.

4. Suv ta'minoti bo'yicha limit belgilash tartiblarini qayta ko'rib chiqib, belgilangan limitdan ortiqcha sarflangan suv resurslari uchun moliyaviy javobgarlik choralari kuchaytirish.

5. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni sug'orishda suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarini qo'llaydigan xo'jaliklarga soliq imtiyozlarini qo'llash tartiblarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. –T.: Sharq, 1998.
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2020 y. 321-327 b. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 1-son 2020-yil 221-bet.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024 son farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025 — 2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-250-son qarori.



5. Авакян А. Б. Концепция использования водных объектов // Мелиорация и водное хозяйство, № 5, 1994, с. 13-15.
6. Casagrande, A. (1936). The Atterberg Limits of Soils and Their Correlation with Other Soil Properties. Journal of the Boston Society of Civil Engineers, 23, 67-91.
7. A. Ibragimov, D. I. Inomov, I. I. Idiyev, Sh. Sh. Mukhammadov, and S. S. Abduvohitov, "Assessment of the effect of adjusted river flow on crops," BIO Web of Conferences, vol. 103, p. 00012, Jan. 2024, doi: 10.1051/bioconf/202410300012.
8. Абдуғаниев А. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг айрим масалалари. -Т.: ТИҚХМИИ, 2021.
9. Jumayev Sh. Tabiiy resurslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish masalalari. "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / "Ma'mun universiteti" NTM.- Xorazm: Khwarezm publication, 2025.
10. Jumayev Sh. Suv resurslarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari. "Suv xo'jaligini barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani maqolalar to'plami. 24-25 - mart 2025-yil. Buxoro, 2025.
11. Jumayev Sh. Respublikamizda tabiiy resurslarni soliqqa tortishni takomillashtirishga oid. "Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga jadal o'tkazishning nazariy, tashkiliy metodologik asoslari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2025-yil 13-mart. Samarqand, SamISI 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>